



MODERN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF ECONOMIC PROCEDURAL LAW

Boymurod Jurayevich Abdullayev

Associate Professor

Department of Legal Sciences, Sarbon University

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Economic procedural law, economic litigation, electronic court system, mediation, enforcement of court decisions, digital transformation, electronic evidence, investment attractiveness, economic disputes, judicial and legal reforms.

Received: 13.05.26

Accepted: 14.05.26

Published: 15.05.26

Abstract: This article analyzes the importance of economic procedural law in a market economy and its role in the effective resolution of economic disputes in Uzbekistan. It highlights key issues such as gaps in legislation, inconsistencies in judicial practice, and insufficient digitalization of the judicial system. The paper also proposes measures to develop e-justice, strengthen mediation mechanisms, and improve the enforcement of court decisions.

IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Boymurod Jo'rayevich Abdullayev

Sarbon universiteti Huquqiy fanlar kafedrasida dotsenti

boymurodabdullayev@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Iqtisodiy protsessual huquq, iqtisodiy sudlov, elektron sud tizimi, mediatsiya, sud qarorlarini ijro etish, raqamli transformatsiya, elektron dalillar, investitsion jozibadorlik, iqtisodiy nizolar, sud-huquq islohotlari.

Annotatsiya: Mazkur maqolada iqtisodiy protsessual huquqning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi ahamiyati, iqtisodiy nizolarni samarali hal etishdagi o'rni hamda O'zbekistonda ushbu sohani takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Sud-huquq tizimidagi mavjud muammolar, jumladan normativ-huquqiy bo'shliqlar, sud amaliyotidagi nomuvofiqliklar va raqamlashtirish darajasining yetarli emasligi yoritilgan. Shuningdek, elektron sudlovni rivojlantirish, mediatsiya institutini

kengaytirish va sud qarorlarini ijro etish samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПРОЦЕССУАЛЬНОГО ПРАВА

Боймурод Джораевич Абдуллаев

*Доцент кафедры юридических наук Сарбонского университета
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: экономическое процессуальное право, экономические судебные разбирательства, электронная судебная система, медиация, исполнение судебных решений, цифровая трансформация, электронные доказательства, инвестиционная привлекательность, экономические споры, судебно-правовые реформы.

Аннотация: В статье анализируется значение экономического процессуального права в условиях рыночной экономики и его роль в эффективном разрешении экономических споров в Узбекистане. Рассматриваются актуальные проблемы судебно-правовой системы, включая пробелы в законодательстве, несогласованность судебной практики и недостаточный уровень цифровизации. Предлагаются меры по развитию электронного правосудия, института медиации и повышению эффективности исполнения судебных решений.

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy munosabatlarning barqarorligi va samaradorligini ta'minlashda iqtisodiy protsessual huquq muhim rol o'ynaydi. U tadbirkorlik subyektlari o'rtasida yuzaga keladigan nizolarni tezkor, adolatli va samarali hal etishni kafolatlovchi asosiy huquqiy poydevor vazifasini o'taydi. Huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yo'lidan borayotgan O'zbekiston Respublikasi uchun iqtisodiy protsessual qonunchilikni doimiy takomillashtirib borish strategik ustuvor vazifalardan biridir. Ushbu jarayon nafaqat milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga xizmat qiladi, balki mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirish, xalqaro savdo-iqtisodiy munosabatlardagi mavqeini mustahkamlash hamda global iqtisodiy tizimga integratsiyalashuvini ta'minlash uchun ham g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. O'zbekistonda so'nggi yillarda sud-huquq tizimini liberallashtirish va modernizatsiya qilish borasida keng qamrovli islohotlar joriy etilmoqda. Mazkur islohotlar natijasida iqtisodiy sudlarda ishlarni ko'rish sifati va tezkorligi oshgan bo'lsa-da, amaliyotda hali ham bir qator tizimli va dolzarb muammolar saqlanib qolayotgani

kuzatilmoqda. Bular jumladan: normativ-huquqiy bazadagi ayrim kolliziyalar va bo'shliqlar; sud amaliyotida yagona huquqni qo'llash amaliyotining to'liq shakllanmaganligi; sud jarayonlarining raqamli transformatsiyasi darajasi; nizolarni muqobil hal etish mexanizmlaridan samarali foydalanish darajasining pastligi kabi masalalardir. Ushbu nuqsonlar tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, iqtisodiy muhitning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilishi hamda investitsion iqlimga putur yetkazishi mumkin.

Iqtisodiy protsessual huquqning nazariy va amaliy jihatlari ko'plab mahalliy va xorijiy yetakchi olimlar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan. Xususan, O'zbekistonlik huquqshunoslardan Sh.Shoraxmetov, H.Rahmonqulov, O.Oqyulov, F.Otaxonov, M.Abdusalomov, M.Mamasiddiqov, Z.Esanova, D.Xabibullayev, F.Ibratova, Q.Avezov, O.Pirmatov, N.Azizovlar kabi olimlar o'z ilmiy ishlarida iqtisodiy protsessual qonunchilikni takomillashtirishga oid muhim masalalarni yoritib chiqqanlar. Biroq, ushbu tadqiqotlarga qaramay, globalizatsiya va raqamli transformatsiya jarayonlari jadal kechayotgan hozirgi sharoitda iqtisodiy protsessual huquqni kompleks tahlil qilish, mavjud institutsional va protsessual muammolarni tizimli ravishda aniqlash hamda ularni hal etish bo'yicha yangi, ilg'or yondashuvlarni ishlab chiqish o'zining dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatini saqlab qolmoqda. Ayniqsa, ilg'or xorijiy tajribani milliy huquqiy tizimga implementatsiya qilish, raqamlashtirish imkoniyatlaridan to'liq va samarali foydalanish hamda sud amaliyotini optimallashtirish bo'yicha chuqur ilmiy asoslangan tahlillarga bo'lgan ehtiyoj sezilarli darajada ortmoqda.

Muhokama va natijalar. Nazariy nuqtai nazardan, iqtisodiy protsessual huquqning predmeti, metodi, asosiy tamoyillari, shuningdek, uning protsessual huquq tizimida tutgan o'rni kabi fundamental masalalar ko'plab tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lgan. Sud amaliyotini chuqur o'rganish natijasida qonunchilikdagi ayrim kolliziyalar, huquq normalari o'rtasidagi nomuvofiqliklar hamda amaliyotdagi yondashuvlarning xilma-xilligi aniqlangan. Bu holat iqtisodiy protsessual huquq normalarini yanada takomillashtirishning obyektiv zaruriyatini taqozo etadi.

Shu bilan birga, iqtisodiy protsessual huquqni modernizatsiya qilish va takomillashtirish masalalari kompleks hamda tizimli yondashuvni talab etuvchi bir qator jihatlar bo'yicha hali to'liq o'rganilmagan. Xususan, hozirgi zamon raqamli texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida iqtisodiy sud ishlarini yuritishning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish, jumladan, sun'iy intellekt elementlaridan foydalanishning istiqbollari, shuningdek, xalqaro ilg'or tajribani milliy qonunchilikka implementatsiya qilishning samarali mexanizmlari bo'yicha chuqurlashtirilgan

ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj sezilmoqda. Bundan tashqari, iqtisodiy protsessual huquq subyektlarining huquqiy ong va madaniyatini oshirish, ularning protsessual harakatlardagi faolligini rag'batlantirishga qaratilgan amaliy-huquqiy mexanizmlar borasida ham fundamental ilmiy izlanishlar olib borish zarurati bor.

Fundamental tahlillar iqtisodiy nizolarni hal etish jarayonida quyidagi asosiy muammoli jihatlar va samaradorlikka to'siq bo'luvchi omillarni ko'rsatadi:

1. Nizolarni sudgacha hal qilish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari.

2. Elektron sudlovini joriy etishdagi protsessual-amaliy muammolar.

3. Isbotlash jarayonidagi muammolar. IPKda mustahkamlangan tortishuv tamoyilining amaliyotda to'laqonli va izchil ta'minlanishi doim ham kuzatilmayapti. Jumladan, yirik korporatsiyalar hamda kichik va o'rta biznes subyektlari o'rtasidagi nizolarni ko'rib chiqishda taraflarning dalillarni taqdim etish va isbotlash salohiyatlaridagi nomutanosiblik yaqqol ko'zga tashlanadi. Aksariyat hollarda, kichik tadbirkorlik subyektlari zarur dalillarni yig'ish va protsessual jihatdan rasmiylashtirish uchun yetarli moliyaviy va malakali yuridik resurslarga ega bo'lmaydi. Aynan shunday vaziyatlarda sudning dalillarni to'plashdagi faol rolini aniq belgilash, uning vakolatlarini delimitatsiya qilish va protsessual kafolatlarni mustahkamlash masalasi o'zining dolzarbligini saqlab qolmoqda.

4. Sud qarorlari ijrosining samaradorligi ta'minlanishi. Iqtisodiy tizimning yakuniy va eng muhim poydevori hisoblangan sud hujjatlari ijrosining samaradorligi bilan bog'liq muammolar butun tizimning umumiy funktsionalligiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ijro harakatlarining asossiz cho'zilishi, murakkab byurokratik protseduralar hamda ijro organlari faoliyatidagi tizimli nuqsonlar tadbirkorlik subyektlarining tizimga va sud himoyasining samaradorligiga bo'lgan ishonchini pasaytiruvchi asosiy sabablardan biri bo'lib hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib quyidagilarni aytib o'tsak maqsadga muvofiq bo'lardi:

1. Amaldagi Iqtisodiy protsessual kodeks o'zining progressiv mohiyatiga qaramasdan, uning normalari raqamli iqtisodiyotning dinamik talablari va xalqaro huquqiy me'yorlar bilan boyitilishi kerak. Xususan, qiyosiy-huquqiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Germaniya Federativ Respublikasi, Singapur Respublikasi va Buyuk Britaniya kabi ilg'or davlatlarning tajribasi elektron dalillar bilan ishlash, protsessual harakatlarni masofadan amalga oshirish va sud jarayonini to'liq raqamlashtirish bo'yicha protsessual kafolatlarni yanada mustahkamlash zaruriyatini yaqqol namoyon etmoqda.

2. Iqtisodiy sud ishlarini yuritishda nizolarni muqobil hal qilish institutlarining, xususan, mediativ kelishuvlar mexanizmining salohiyatidan foydalanishning samaradorlik darajasi

pastligicha qolmoqda. Milliy qonunchilikda mediativ tartib-taomillarni institutsional rag'batlantirish mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi sud tizimidagi ish yuklamasining optimal bo'lmagan taqsimlanishiga olib kelmoqda va nizolashayotgan subyektlar uchun o'zaro maqbul va konstruktiv yechim topish imkoniyatlarini sezilarli darajada toraytirmoqda.

3. Elektron hujjatlar va raqamli imzolar bilan bog'liq bo'lgan dalillarning protsessual maqbulligi, ishonchliligi hamda ularni baholash mezonlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish zarurati kuzatilmoqda. Mazkur holat amaliyotda protsessual tenglik va tortishuvchanlik tamoyillarining to'liq va samarali ro'yobga chiqishiga jiddiy to'siq bo'lishi mumkin.

4. Sud qarorlarining ijro etilishi iqtisodiy sudovning ajralmas va hal qiluvchi bosqichi bo'lib, ushbu sohada byurokratik g'ovlar, ijro jarayonlarining asossiz cho'zilishi va shaffoflikning yetishmasligi kabi muammolar hanuzgacha dolzarbligini yo'qotmagan. Bu esa sud hujjatlarining majburiyigi va so'zsiz ijro etilishi prinsipining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda iqtisodiy faoliyat subyektlarining tizimga bo'lgan ishonch darajasini pasayishiga olib kelishi mumkin.

Yuqorida bayon etilgan fundamental xulosalarga asoslanib, mamlakatimizda iqtisodiy protsessual huquqni modernizatsiya qilish hamda uning amaliy samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Ayrim toifadagi nizolar bo'yicha sudgacha majburiy mediativ tartib-taomillarni institutsional joriy etish. Ushbu norma sud tizimidagi ish yuklamasini optimallashtirish bilan bir qatorda, iqtisodiy subyektlar o'rtasida konstruktiv muloqot va huquqiy madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

2. Kodeksni "Elektron dalillar va ulardan foydalanish tartibi" nomli mustaqil bob bilan boyitish. Unda elektron yozishmalar, audio-video yozuvlar, veb-resurs ma'lumotlari, blokcheyn tranzaksiyalari kabi raqamli axborotlarning protsessual maqomi, ularni yig'ish, taqdim etish, saqlash, tekshirish va baholashning fundamental mezonlari aniq-ravshan mustahkamlanishi zarur.

3. Iqtisodiy sud ishlarini yuritishning barcha bosqichlarini (da'vo arizasini elektron tarzda taqdim etishdan to sud hujjatlarining ijrosini monitoring qilishgacha bo'lgan butun protsessual siklni qamrab oluvchi) yagona, yuqori texnologiyali integratsiyalashgan raqamli platformani joriy etish. Ushbu platforma hujjatlarning elektron almashinuvini ta'minlash bilan bir qatorda, video-konferens-aloqa texnologiyalari orqali sud majlislarida masofaviy ishtirok etish, elektron dalillarni

taqdim etish hamda ijro harakatlarini real vaqt rejimida kuzatish funksional imkoniyatlariga ega bo'lishi lozim.

4. Sudyalarni intellektual mulk huquqi, bankrotlik ishlari, xalqaro tijorat arbitraji kabi murakkab va yuqori ixtisoslashuvni talab etuvchi sohalar bo'yicha muntazam ravishda qayta tayyorlash va malakasini tizimli oshirish mexanizmlarini joriy etish. Iqtisodiy sudlar tarkibida yuqori texnologiyalar va raqamli iqtisodiyot bilan bog'liq bo'lgan nizolarni ko'rib chiqishga ixtisoslashgan maxsus sud tarkiblarini (kollegiyalarni) shakllantirish.

5. Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risidagi amaldagi ijro qonunchiligini fundamental tarzda qayta ko'rib chiqib, sud ijrochilarining vakolat doirasini sezilarli darajada kengaytirish, xususan, ularga qarzdorning mol-mulkini raqamli ma'lumotlar bazalari orqali tezkor aniqlash va protsessual tartibda xatlashda asosli keng huquqlar taqdim etish.

Ushbu takliflarning kompleks tarzda tatbiq etilishi iqtisodiy nizolarni ko'rib chiqish jarayonining shaffofligi, tezkorligi, obyektivligi va samaradorligini sezilarli darajada oshirishga, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini mustahkamlashga hamda huquq ustuvorligi tamoyilini amalda to'liq ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi. – T.: Adolat, 2018.
2. Shorahmetov Sh. Iqtisodiy protsessual huquq. Darslik.– T.:TDYU nashriyoti, 2019.
3. Oqyulov O. Fuqarolik protsessual huquqi. – T.: Adolat, 2017.
4. Abdujalilov B., Abdukarimov M. Iqtisodiy sud ishlarini yuritish nazariyasi va amaliyoti. – T.: Yuridik adabiyotlar nashriyoti, 2021.
5. Yarkov V.V. Арбитражный процесс. Учебник. – Москва: Статут, 2020.
6. Cappelletti M. The Judicial Process in Comparative Perspective. – Oxford: Oxford University Press, 2017.
7. Stuckey R. va boshqalar. Best Practices for Legal Education: A Vision and a Road Map. – Columbia: Clinical Legal Education Association, 2007.
8. Schwartz M.H., Hess G.F., Sparrow S. Teaching Law by Design: Engaging Students from the Syllabus to the Final Exam. – San Francisco: Jossey-Bass, 2011.